

**O'ZBEKISTONDA FINLANDIYA TAJRIBASINI KIRIB KELISHI VA
TA'LIM SOHASIDA FIN METODLARINING JORIY ETILISHI**

Sadikova Suriya

O'zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti

Ingliz tili fani o'qituvchisi

BTU 208, Sadullayeva Dinarachka

BTU 208, Qurdosheva Gulyora

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ijobiy tajribasini mamlakatimiz ta'lim tizimiga hamda Milliy o'quv dasturiga joriy qilish vazifasi belgilangan edi.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan finlyandiyalik ekspertlar va rasmiy doira vakillari bilan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yilning 21-aprel kuni Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Finlyandiyaning Ta'lim va madaniyat vazirligi hamda Milliy ta'lim agentligi hamkorligida "Finlyandiya ta'lim dasturlarini o'rganish: ta'lim dasturlari va o'quv materiallari" mavzusiga bag'ishlangan onlayn seminar tashkil etildi.

Unda Finlyandiya Milliy ta'lim agentligi ta'lim maslahatchisi Yorma Kauppinen va agentlikning o'quv materiallari menejeri Syuzanna Byorkell, shuningdek, Ta'lim inspeksiyasi rahbariyati, mutasaddi xodimlar va vazirlik va idoralar vakillari, uzluksiz ta'lim tizimi konsepsiyalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda va ekspertizadan o'tkazishda qatnashgan mutaxassislar, olimlar, 1 000 nafarga yaqin o'qituvchi va metodistlar ishtirok etishdi. Tadbir davomida Finlyandiyalik mutaxassislar tomonidan Finlyandiya ta'lim tizimi, milliy va mahalliy o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv materiallari va televideniye orqali dars beruvchi o'qituvchilarni tayyorlash bilan bog'liq qator masalalar bo'yicha atroflicha ma'lumot berildi. Jumladan, Finlyandiya Milliy ta'lim agentligi ta'lim maslahatchisi Yorma Kauppinenning ta'kidlashicha, fin ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash bo'yicha "boshi berk nuqta" mavjud emas. Yoshlar erta bolalik davridan boshlab, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb hunar yoki oliy ta'lim muassasalarini bitirganidan keyin ham ta'limni davom ettirishadi.

Maktablarda dars soatlarining taqsimoti haftasiga 1-2-sinflar uchun eng kamida 19 soat qilib belgilangan bo'lsa, 9-sinflar uchun esa ushbu ko'rsatkich 30 soatni tashkil etadi. Maktablar o'quv rejasiga ko'ra, to'qqiz yillik haftalik umumiy yuklama 222 soat. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 254 soatni tashkil etadi.

— Maktab o‘quvchilarida kasblar va sohalar bilan bog‘liq ko‘nikma va bilimlarni shakllantirishda o‘ziga xos yondashuv mavjud. Bunda bilim, ko‘nikma bilan bir qatorda yondashuv, munosabat va iroda kabi xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Ya’ni o‘quvchilarga hayotlari davomida egallashlari lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bilan birga hayotiy transversal kompetensiyalar o‘quv dasturlarining bir qismi sifatida muntazam o‘qitib boriladi.

Bundan tashqari, munitsipalitetlar va maktablar hududdagi aholi uchun muayyan ko‘nikmalarning zaruriyatidan kelib chiqqan holda, o‘quv dasturlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritishlari ham mumkin. Shu bilan birgalikda, maktablarda o‘quv jarayonlarini tashkil etishda o‘quvchilarning ehtiyojlari, imkoniyatlari va kuchli tomonlari ham hisobga olinadi, — dedi Yorma Kauppinen. Finlyandiya Milliy ta’lim agentligi o‘quv materiallari menejeri Syuzanna Byorkell mamlakatda o‘quv materiallari (darslik, qo‘llanma) ni tayyorlash tizimi haqida ma’lumot berib o‘tdi. Ta’kidlanishicha, Finlyandiya o‘quv materiallari milliy o‘quv dasturiga asoslangan holda davlat tili fin yoki shved tilida tayyorlanadi. Har bir o‘quv materialini o‘quv jarayonlariga tatbiq etishda pedagogik asosga ega ekanligiga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, o‘quv materiallarini tayyorlashda mamlakatdagi umuminsoniy qadriyatlar, ta’lim muhiti va o‘qitish bo‘yicha maslahatlar va o‘qituvchilar uchun alohida materiallarning mavjudligi hisobga olinadi.

Bundan tashqari, o‘quv dasturlarining ta’lim jarayonlariga tatbiq etilishida an’anaviy darsliklar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan elektron qo‘llanmalar hamda turli formatdagi materiallardan ham keng foydalaniladi.

Xususan, Finlyandiya davlat teleradiokompaniyasi va Finlyandiya ta’lim agentligi hamkorligida o‘qituvchilarga kundalik hayotini mazmunli o‘tkazishi, o‘z-o‘zini rivojlantirishlari va boshqa o‘qituvchilar bilan o‘zaro muloqot qilishlari uchun alohida telekanal tashkil qilingan. Telekanal dasturlari asosan yoshlarda media va raqamli texnologiyalardan foydalanish mahorati, ta’lim olish, tillarni o‘rganish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda Finlyandiya qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, izchillik bilan o‘rganilmoqda. Mazkur jarayonda Finlyandiya ta’lim tizimining mahalliy sharoitga mos jihatlari yangilanadigan o‘quv dasturlariga singdiriladi.

Joriy yilning 13-aprel kuni Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida “O‘zbekiston-Finlyandiya hamkorlik yo‘nalishlarining istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy forum tashkil etildi. Unda Finlyandiyaning Markaziy Osiyo bo‘yicha favqulodda va muxtor elchisi Mariya Liivala, Finlyandiya Ta’lim va madaniyat vazirligi Bosh boshqarmasi direktori (O‘zbekiston–Finlyandiya ta’lim hamkorligi koordinatori) Kirsi Lindrus, Lappeenranta shahri meri Kimmo Yarva, Solo shahri meri Tero Nissinen, Finlyandiyaning O‘zbekistondagi faxriy konsuli Alisher Jo‘rayev,



Ta'lim inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev, Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov, Tashqi ishlar vazirligi boshqarma boshlig'i Oybek Shaxavdinov, hamda ayni kunlarda mamlakatimizda ishchi tashrif bilan bo'lib turgan investorlar: "FinEst Bay Area" kompaniyasi asoschisi Peter Vesterbakka, "Finest Future" kompaniyasi hammuassisi Tuomas Tiilikaynen, "Edunation Finland" kompaniyasi hammuassisi Harri Suominen, "Skillgrower" kompaniyasi asoschisi Pasi Savola va PK Safety and Rescue" kompaniyasi bosh direktori Pertti Korteyarvi ishtirok etdi. Forumni kirish so'zi bilan ochib bergan Ta'lim inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev Finlyandiya vakillariga hamkorlik uchun minnatdorchilik bildirar ekan, ta'lim sifatini oshirishda Finlyandiya tajribasini joriy etish borasida amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalarga to'xtalib o'tdi. yana-da kengaytirishga xususan, Buxoro va Turku shaharlari o'rtasida birodarlik memorandumi imzolashga kelishib olindi.

Yana bir muhim kelishuv sifatida Navoiy va Buxorodagi professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarini Finlyandiyaga kasbiy stajirovka uchun jalb etish hamda ularning sonini 2030-yilgacha 10 000 nafarga yetkazish rejalashtirilmoqda. Samarqand viloyatiga tashrif davomida esa maktab o'qituvchilari almashinuvini yo'lga qo'yish, hamkorlikda pedagoglar tayyorlash, talabalar almashinuvi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha muzokaralar o'tkazildi. Xususan, O'zbek-fin pedagogika institutini tashkil etish, Finlyandiya oliy pedagogik ta'lim tizimida amalda bo'lgan o'quv dasturlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish, mahalliy tadbirkor bilan hamkorlik fin tajribasi bo'yicha ta'lim-tarbiya beriladigan maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish takliflari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, finlyandiyalik kompaniya rahbarlari Toshkent shahri va viloyatlarda Start-up" loyihalari va IT sohasi bo'yicha o'tkazilgan uchrashuv va master-klasslarda mamlakatimiz yoshlariga o'z tajribalarini o'rtoqlashdi, – dedi Ulug'bek Tashkenbayev.

Forum davomida ikki mamlakat o'rtasida ta'lim sohasi bo'yicha hamkorlik loyihalarini kengaytirish, xususan matematika va fin tilini o'qitish, o'qituvchilar almashinuvi, hamkorlikda pedagoglar tayyorlash hamda oliy ta'lim bo'yicha qo'shma dasturlarni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://tdi.uz/uz/news/770>
2. <https://inha.uz/uz/it-inkubatsiya-markazi/ozbekistonda-birinchi-marta-moliyaviy-texnologiya-markazi-ochildi/>